

**YOSHLARDA TA'LIM OLIISHGA NISBATAN IJOBIIY MUNOSABAT
SHAKLLANTIRISHDA MULOQOTNING TA'SIRI**

Olimov Temur

Ilmiy rahbar

Karimova Sohiba

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda ta'limga qiziqish va o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonida muloqotning o'rnini yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi do'stona suhbat, ota-ona bilan fikr almashish hamda jamoadagi ijtimoiy muloqot motivatsiyani oshirishi haqida misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: muloqot, ta'lim, motivatsiya, psixologiya, o'quvchi, ota-ona, talaba, rag'bat, kommunikatsiya, ijobiy munosabat.

Introduction

ABSTRACT

This article examines the role of communication in fostering young people's interest in education and developing a positive attitude toward learning. It also provides examples of how friendly dialogue between teachers and students, exchange of ideas with parents, and social communication within the group can enhance motivation.

Keywords: Communication, education, motivation, psychology, learner, parent, student, encouragement, communication skills, positive attitude.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning bilim olishga bo'lgan munosabati, o'qishga qiziqishi va intilishi mamlakatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida yoshlarda ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish masalasi dolzarb muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Bugungi kunda ayrim yoshlar ta'limni shaxsiy rivojlanish va kelajak muvaffaqiyatining asosi deb bilsa, boshqalar uchun u faqat majburiyat yoki tashqi talab sifatida qabul qilinmoqda. Bu holat yoshlarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'quvchi yoki talabaning ta'limga munosabati faqat bilim berish jarayoni bilan emas, balki u yashayotgan ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, tengdoshlar bilan aloqasi hamda eng muhimi – muloqot sifati bilan chambarchas bog'liqdir.

Muloqot – bu insonlar o‘rtasida axborot almashinuvi, o‘zaro tushunish, hissiy yaqinlik va ijtimoiy tajriba uzatish jarayonidir. Ta’lim jarayonida muloqot faqatgina o‘qituvchi tomonidan bilim yetkazish vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlovchi va bilim olishga undovchi kuchli psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi samimiy suhbat, hurmatga asoslangan munosabat, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yoshlarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida shaxsning ruhiy holati tashqi ta’sirlarga juda sezgir bo‘ladi. Shu davrda aytilgan bir og‘iz iliq so‘z, bildirilgan ishonch yoki aksincha, qo‘pol tanqid yoshning ta’limga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishi mumkin. O‘qituvchi tomonidan bildirilgan ijobiy fikr, ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va tengdoshlar orasidagi sog‘lom muloqot ta’lim jarayonini samarali va mazmunli qiladi.

Hozirgi zamonda ta’lim faqat auditoriya yoki darsliklar bilan cheklanib qolmaydi. Talabalar bilimni muloqot jarayonida – savol-javoblar, munozaralar, guruh ishlari, treninglar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham egallamoqdalar. Shuning uchun zamonaviy ta’lim tizimi yoshlarda erkin fikrlash, o‘z fikrini ochiq ifoda etish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada yoshlarda ta’lim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muloqotning o‘rni, uning psixologik va pedagogik jihatlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. O‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning yoshlar bilan bo‘ladigan muloqoti ta’lim motivatsiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, ijobiy va salbiy muloqotning natijalari hayotiy misollar orqali yoritib beriladi.

Bugungi tez o‘zgarayotgan davrda yoshlarning ta’limga munosabati katta ahamiyatga ega. Kimdir bilim olishni hayotiy zarurat deb bilsa, boshqalar uchun bu shunchaki majburiyat bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabaning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi ko‘pincha atrofi bilan qanday muloqot qilishiga bog‘liq. Ya’ni yaxshi gap, rag‘bat, qo‘llab-quvvatlash – o‘qishga undaydi; tanbeh, qo‘pollik – aks ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ta’lim har bir yosh insonning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biridir. Kimki bilimga intilsa, o‘zini rivojlantirsa va yangi ko‘nikmalarni o‘rgansa — hayotda o‘z o‘rnini topadi, yaxshi kasb egasi bo‘ladi, jamiyatda hurmat qozonadi. Ammo hamma yoshlar ham o‘qishga bir xil munosabatda emas. Ba’zilar qiziqib o‘qisa, boshqalari darsni zerikarli deb bilishi yoki o‘qishga yetarlicha motivatsiya topa olmasligi mumkin. Shunday vaziyatda atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot juda katta rol o‘ynaydi.

Yoshlarda ta’lim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bu jarayonda muloqot muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bilim olishga bo‘lgan qiziqish ko‘pincha o‘qituvchi, ota-ona va tengdoshlar bilan o‘rnatilgan munosabatlarning sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Ijobiy, samimiy va hurmatga asoslangan muloqot yoshlarning o‘ziga ishonchini oshiradi, ularni faollikka undaydi va ta’lim jarayoniga mas’uliyat bilan yondashishga yordam beradi.

O‘quvchi yoki talaba o‘z fikrini erkin bildirishi, savollar berishdan cho‘chimagan muhitda bilimni chuqurroq va ongli ravishda o‘zlashtiradi. Agar u o‘qituvchi tomonidan tushunilayotganini va qadrlanayotganini his qilsa, ta’limni majburiyat emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi. Bu esa ichki motivatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Ichki motivatsiya esa ta’lim samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Aksincha, sovuq munosabat, qo‘pollik, doimiy tanqid va mensimaslik yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini susaytiradi. Bunday muhitda bilim olish jarayoni qiyinlashadi, talaba o‘z imkoniyatlariga ishonmay qo‘yadi va passivlik yuzaga keladi. Shu sababli ta‘lim jarayonida tarbiya va muloqot uyg‘unligi ta‘minlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, muloqot – bu yoshlarni ta‘limga yetaklovchi eng muhim pedagogik vositalardan biridir. O‘qituvchi va ota-onaning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki yoshlarni tinglash, ularning fikriga hurmat bilan qarash, kichik yutuqlarini e‘tirof etish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lishi kerak. Shundagina yoshlarda ta‘limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, ular mustaqil fikrlaydigan, faol va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxs sifatida kamol topadi.

Demak, ta‘lim tizimida muloqotni rivojlantirish, sog‘lom psixologik muhit yaratish va insoniy munosabatlarga e‘tibor qaratish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ijobiy muloqot mavjud bo‘lgan joyda bilimga intilish, taraqqiyot va muvaffaqiyat bo‘ladi.

Yosh odamning ruhiy holati va o‘qishga munosabati ko‘pincha unga aytilgan bir og‘iz yaxshi so‘z, berilgan kichikgina e‘tibor yoki ko‘rsatgan mehrdan shakllanadi. O‘qituvchining iliq muomalasi, ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi, do‘stlarning ijobiy fikri — bularning barchasi talabani darsga faolroq bo‘lishga undaydi. Aksincha, tanbeh, mensimaslik, qo‘pol muomala yoki doimiy tanqid yoshlarning o‘qishga ishtiyoqini pasaytirishi, ishonchini yo‘qotishi mumkin. Demak, ta‘lim jarayonida oddiy suhbat va munosabat ham talabani kelajakdagi yo‘lini belgilab qo‘yishi hech gap emas.

Hozirgi zamonda talabalar faqat kitob va dars orqali emas, balki odamlar bilan muloqot, fikr almashish, savol-javoblar orqali ham ko‘p narsani o‘rganadi. Ayniqsa, o‘smirlik yoshida ular o‘z fikrini eshutilishini, qadrlanishini va tushunilishini istaydi. Agar bu ehtiyojlar qondirilsa, unda o‘qish oson jarayonga aylanadi, o‘quvchi bilimni majburiyat uchun emas, o‘zi xohlagani uchun oladi. Shuning uchun muloqot — bu faqat gaplashish emas, balki yoshlarning qalbiga yo‘l topish, ularni rag‘batlantirish, to‘g‘ri yo‘naltirish usulidir.

Shu bois ushbu mavzuda muloqotning ta‘limga ta‘siri, uning yoshlarning ruhiy holati, o‘qishga qiziqishi va motivatsiyasiga qanday ta‘sir qilishi bo‘yicha turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Maqolada aynan shu masala yoritiladi, ta‘lim jarayonida muloqotning ahamiyati hayotiy misollar, adabiyotlarda berilgan fikrlar va ilmiy qarashlar asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta‘lim jarayonida Yoshlar ta‘limga qanday munosabatda bo‘lishi va bunda muloqotning o‘rni haqida ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borgan.

A.S. Makarenko o‘z asarlarida o‘quvchi bilan muomala qilishda hurmat va talab birga bo‘lishi kerakligini aytadi. Ya‘ni farzand yoki talabani faqat maqtash ham to‘g‘ri emas, faqat tanbeh ham. O‘rtacha, adolatli yondashuv bo‘lsa, talaba o‘zini qadrlangan his qiladi va o‘qishga intiladi. Unga ko‘ra, yaxshi so‘z – tarbiya uchun kuchli qurol.

L.S. Vygotskiy esa bola faqat kitobdan emas, atrofidagi odamlar bilan muloqot orqali ham ko‘p narsani o‘rganishini ta‘kidlaydi. Bu degani, bolaning rivojlanishi faqat dars emas, balki ota-ona, do‘stlar, o‘qituvchilar bilan qanday gaplashishi, qanday munosabatda bo‘lishiga ham bog‘liq. U “yaqin rivojlanish zonasi” degan tushunchani kiritgan – ya‘ni talaba o‘zi mustaqil bajara olmaydigan ishni, muloqot va yordam orqali uddalashi mumkin.

Bandura o‘zining “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”da bolalar ko‘pincha boshqalarni kuzatish orqali bilim olishini tushuntiradi. Masalan, yaxshi o‘qiydigan sinfdoshini ko‘rib, boshqalar ham unga ergashadi; o‘qituvchi rag‘bat bersa, talababalar ham xuddi shunday bo‘lishga intiladi. Ya‘ni ijobiy muloqot – ijobiy natija, salbiy muhit esa aksincha natija beradi.

E. G‘oziyevning psixologiya bo‘yicha kitoblarida esa yoshlarning xulqi va o‘qishga bo‘lgan munosabati ko‘pincha emotsional holatiga bog‘liqligi aytiladi. Agar o‘qituvchi darsda qattiq, sovuq bo‘lsa, talaba o‘qishdan qochadi. Agar iliq muhit bo‘lsa – qiziqish paydo bo‘ladi. Bu ham muloqotning kuchli ta‘sirini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa internet, gadjetlar, do‘stlar muhitining ta‘limga ta‘siri ko‘p o‘rganilmoqda. Olimlar fikricha, yoshlar ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazgani sababli ularga yaqin muloqot, jonli suhbat, motivatsion mashg‘ulotlar tashkil etish ta‘limga qiziqishni oshiradi. Ayniqsa, treninglar, debatlar, guruh ishlari talabaning fikrlashini faollashtiradi.

O‘zbekiston olimlari va pedagogika bo‘yicha metodik qo‘llanmalarda ham muloqotning roli alohida ta‘kidlanadi. Ta‘lim – bu faqat bilim berish emas, balki tarbiya, motivatsiya, ishonch va do‘stona muhit yaratishdir. Demak, o‘qituvchi va ota-ona bolaning dardi bilan qiziqsa, uni tinglasa, kichik yutuqlarini maqtasa – bu bola ongida “men o‘qisha qodirman” degan ishonchni shakllantiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkin: adabiyotlarda umumiy g‘oya shuki, muloqot ta‘limning ajralmas qismidir. Ijobiy muloqot – yaxshi natija, sovuq va qo‘pollik esa qiziqishni pasaytiradi. Shu sababli yoshlar bilan samimiy suhbat, rag‘batlantirish, fikrini tinglash, muhit yaratish – ta‘lim samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Yoshlarning ta‘limga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muloqotning o‘rni juda katta. Chunki o‘quvchi yoki talaba o‘qishga mehr qo‘ymoqchi bo‘lsa, avvalo atrofdegilarning unga bo‘lgan munosabatini his qiladi. Agar u o‘qituvchi bilan bemalol savol-javob qila olsa, ota-onasi uni qo‘llab-quvvatlasa, do‘stlari bilan bilim haqida bahslashsa – unda o‘qishga bo‘lgan qiziqish tabiiy ravishda kuchayadi. Demak, yaxshi muloqot – talaba ruhiyatini ko‘taradigan, uni o‘qishga chorlaydigan eng oddiy, ammo eng kuchli vosita hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot bo‘lgan joyda faollik bo‘ladi. Suhbat, rag‘bat, iliq so‘zlar – talabada o‘ziga ishonch va harakatga intilish uyg‘otadi. Shuningdek, muloqot orqali talaba nimani yaxshi bilishi yoki qaysi joyda qiynalayotgani aniqlanadi. O‘qituvchi bu ehtiyojni sezib turib, unga yordam bersa, talaba buni qadrlaydi va ta‘lim jarayoniga yanada jiddiyoq yondashadi.

Agar aksincha, bola doim tanqid qilinsa, savollariga qo‘pol javob berilsa, muvaffaqiyatsizligiga kulinsa – unda o‘qishga salbiy munosabat paydo bo‘ladi. Shuning uchun tarbiya va ta‘limda yumshoqlik, tushunish, hurmat qilish juda muhim. O‘qituvchi, ota-ona va jamiyat bir xil maqsadga xizmat qilsa – ijobiy natijaga erishish osonroq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, muloqot – bu yoshni o‘qishga yo‘naltiruvchi ko‘prikdir. Shu ko‘prik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchi yoki talaba bilim olishni istaydi, mustaqil fikrlaydi, o‘z ustida ishlaydi va hayotda faol pozitsiya egallaydi. Ijobiy muloqot o‘quvchi yoki talabani rag‘batlantiradi, salbiy muloqot esa uning rivojini to‘xtatishi mumkin. Demak, har bir o‘qituvchi va ota-ona yosh avlodga mehr bilan yondashsa, dars jarayonida samimiy muhit yaratsa, yoshlar orasida ta‘limga bo‘lgan ishtiyoq oshadi, natija esa yanada samarali bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Makarenko A.S. Pedagogik poema. – Moskva: Prosvesheniye, 1987.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya va pedagogika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
3. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Pedagogika ensiklopediyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Ziyomuhhammadov B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2018.
7. Hasanboyeva O., Yo'ldosheva S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2016.
8. Salomova N. Kommunikativ kompetensiya va uning ta'limdagi roli. – Toshkent: Noshir, 2020.
9. Jalolov J.J. Ta'lim jarayonida muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012.
10. Abdullayeva Q. O'smir psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
11. G'afurov U. Pedagogik mahorat. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2015.